



**YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUG'URTA
KAMPANIYALARINING ISHTIROKI**

Karimova Sayyora Abdurashid qizi

***Anotatsiya** Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni va ularning ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar va resurslarning cheklanganligi sharoitida sug'urta sektori nafaqat iqtisodiy xavflarni kamaytiruvchi vosita, balki yashil loyihalarni moliyalashtiruvchi va iqlim risklarini boshqaruvchi muhim moliyaviy institut sifatida ko'rilmogda. Xalqaro tajriba, statistik ma'lumotlar hamda O'zbekiston misolida sug'urta kompaniyalarining yashil iqtisodiyotga qo'shayotgan hissassi tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, sug'urta kompaniyalari, iqlim risklari, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik barqarorlik, moliyaviy institutlar.*

***Abstract** This article explores the role of insurance companies in the development of the green economy and their importance in ensuring environmental sustainability. In the context of climate change, natural disasters, and limited resources, the insurance sector is not only a tool for mitigating economic risks but also a crucial financial institution that finances green projects and manages climate-related risks. The paper analyzes international experience, statistical data, and the contribution of insurance companies to the green economy using Uzbekistan as a case study.*

***Keywords:** green economy, insurance companies, climate risks, renewable energy, environmental sustainability, financial institutions.*

So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar, ekologik muammolar va resurslarning cheklanganligi dunyo iqtisodiyotida katta o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ushbu muammolarga qarshi barqaror yechim sifatida maydonga chiqdi. Bunda moliya institutlari, xususan, sug'urta kompaniyalari muhim o'rin tutadi. Sug'urta sektori nafaqat iqtisodiy xavflarni kamaytiradi, balki yashil loyihalarni moliyalashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim risklarini boshqarishda ham bevosita ishtirok etadi.

Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining yashil iqtisodiyotdagi roli, xalqaro tajriba, statistik ma'lumotlar va O'zbekiston misolida rivojlanish istiqbollari keng yoritiladi.

Sug'urta kompaniyalarining iqtisodiyotdagi o'rni

Sug'urta kompaniyalari moliya bozorining ajralmas bo'lagi bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ularning asosiy vazifalari:

Risklarni boshqarish;

Investitsion faoliyat;

Moliyaviy himoya mexanizmini yaratish;



Tadqiqot va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Xalqaro sug'urta federatsiyasi (GFIA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda global sug'urta bozori hajmi 6,8 trillion AQSh dollarini tashkil etdi va bu YIMning 7% ga yaqinini qamrab oldi. Bu ko'rsatkich sug'urta kompaniyalarining iqtisodiyotdagi ulkan rolini ko'rsatadi.

Yashil iqtisodiyot va moliyaviy institutlar roli

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida tashkil etadi. Bu jarayonda moliyaviy institutlar — banklar, investitsiya fondlari va sug'urta kompaniyalari — muhim o'rin egallaydi. Chunki yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun moliyaviy oqimlarni ekologik loyihalarga yo'naltirish zarur.

Yashil iqtisodiyotga quyidagilarni misollarni keltirishimiz mumkin:

1. Qayta tiklanuvchi energiya – quyosh panellari, shamol turbinalari, biogaz stansiyalari.
2. “Yashil transport” – elektroavtobuslar, elektromobillar, vodorod yoqilg'isida ishlovchi poyezdlar.
3. Chiqindisiz ishlab chiqarish – qayta ishlash zavodlari (plastmassa, metall, qog'ozni ikkilamchi foydalanish).
4. Ekologik qishloq xo'jaligi – kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlar o'rniga tabiiy usullar.
5. Yashil qurilish – energiya tejamkor uylar, issiqlikni saqlaydigan materiallardan foydalanish.

6. Suv resurslarini tejash texnologiyalari – tomchilatib sug'orish tizimlari.

Ishlab chiqarish korxonalari yashil iqtisodiyotda quyidagi uslublarda ishlaydi:

Energiyani tejash – ishlab chiqarishda an'anaviy energiya manbalari o'rniga quyosh, shamol va boshqa toza energiyadan foydalanadi.

Chiqindini kamaytirish – ishlab chiqarish jarayonida chiqindilarni qayta ishlash yoki yana ishlab chiqarish sikliga qaytarish.

“Yopiq sikl” texnologiyasi – mahsulot ishlab chiqarishda chiqindidan yangi mahsulot yaratish (masalan, alyuminiy qadoqlarni qayta eritib, yangi qadoqlar ishlab chiqarish).

Toza ishlab chiqarish – zararli gazlar, tutun va chiqindilarni minimallashtirish yoki maxsus filtrlash.

Ular mahsulotni quyidagi holatlarda ishlab chiqaradi:

Ekologik toza – zararli kimyoviy moddalarsiz, odam salomatligiga xavfsiz

Qayta ishlanishi mumkin bo'lgan – mahsulot iste'mol qilingandan keyin chiqindiga aylanmaydi, balki qayta foydalaniladi (masalan, qayta ishlanadigan plastik shishalar).

Energiya tejamkor – ishlab chiqarishda ham, foydalanishda ham kamroq energiya talab qiladi (masalan, LED lampalar).

Uzoq muddatga chidamli – tez buzilmaydigan, tez-tez almashtirishni talab qilmaydigan mahsulot.

Umaman olganda, yashil iqtisodiyotdagi korxonalar tabiatga zarar bermaydigan, resurslarni tejaydigan va chiqindisiz ishlab chiqarishga intiladigan uslubda ishlaydi.





Sug'urta kompaniyalari esa quyidagi mexanizmlar orqali yashil iqtisodiyotga hissa qo'shadi:

- Yashil obligatsiyalarni sug'urtalash;
- Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini kafolatlash;
- Iqlim xavflariga qarshi sug'urta mahsulotlari ishlab chiqish;
- Barqaror moliyaviy infratuzilmani yaratishda ishtirok etish.

Sug'urtaning yashil iqtisodiyotdagi asosiy mexanizmlaridan biri yashil sug'urta mahsulotlaridir.

Yashil sug'urta mahsulotlari atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan maxsus xizmatlardir. Masalan, ekologik toza avtomobillar uchun past tarifli sug'urta, qayta tiklanuvchi energiya stansiyalarini sug'urtalash.

Sug'urtaning yashil iqtisodiyotdagi asosiy mexanizmlaridan ikkinchisi iqlim risklarini boshqarishdir.

Iqlim o'zgarishi tufayli tabiiy ofatlar soni ortmoqda. Munich Re ma'lumotiga ko'ra, 2021-yilda tabiiy ofatlar natijasida 280 milliard AQSh dollari miqdorida iqtisodiy zarar yetkazilgan, shundan 120 milliard dollar sug'urta kompaniyalari tomonidan qoplangan.

Sug'urtaning yashil iqtisodiyotdagi asosiy mexanizmlaridan uchunchusi qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini sug'urtalashdir.

Quyosh panellari, shamol turbinalari va gidroenergiya inshootlari kabi loyihalar katta investitsiyalar talab qiladi. Sug'urta kompaniyalari ushbu loyihalarni kafolatlash orqali investorlar uchun xavflarni kamaytiradi.

Xalqaro tajriba va statistik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Yevropa mamlakatlarida yashil sug'urta keng rivojlanganligiga guvoh bo'lamiz. Chunki, Yevropa sug'urta bozorida Allianz va Swiss Re kabi kompaniyalar yashil obligatsiyalarni sug'urtalashda yetakchi hisoblanadi. 2022-yilda Yevropada yashil sug'urta mahsulotlari bozorining hajmi 200 milliard yevroga yetgan.

AQShda sug'urta kompaniyalari esa iqlim xavflariga qarshi maxsus dasturlar ishlab chiqmoqda. Masalan, Kaliforniya shtatida o'rmon yong'inlariga qarshi sug'urta paketlari joriy etilgan.

Xitoy 2017-yildan boshlab "yashil sug'urta" dasturini joriy etdi. 2022-yilda ushbu dastur doirasida 50 milliard dollarlik loyihalar sug'urtalandi.

O'zbekiston misolida Yashil iqtisodiyotda sug'urtaning kompaniyalarining faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekiston sug'urta bozori so'nggi yillarda sezilarli rivojlanganligiga guvoh bo'lamiz. Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot strategiyasi doirasida sug'urta kompaniyalarining quyidagi yo'nalishlarda ishtiroki kutilmoqda:

- Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini sug'urtalash;
- Ekologik transport vositalari uchun imtiyozli sug'urta tariflari;
- Qishloq xo'jaligida iqlim risklariga qarshi sug'urta mexanizmlarini rivojlantirish.



Shuningdek, O'zbekistonda "Iqlim sug'urtasi" dasturini joriy etish orqali fermerlar va tadbirkorlarni tabiiy ofatlardan himoya qilish imkoniyati ham mavjud.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda EUROASIA Insurance sug'urta kompaniyasi O'zbekistonda quyosh panellarini sug'urtalash bo'yicha bozor yetakchilaridan biri hisoblanadi. Ular quyosh tizimlarini 12 turdagi risklardan himoya qilishni taklif qiladi — bu bozordagi raqobatchilarga nisbatan ancha keng qamrovli sug'urta hisoblanadi.

Sug'urta qilinadigan asosiy risklar quydagilardan iborat:

1. Tabiiy ofatlar:

Kuchli shamol (bo'ron, dovul, turbin)

Kuchli qor yog'ishi

Do'l

Zilzila

Bo'ron (sel), to'fon

Chaqamoq urishi

Ko'chkilar, yer ko'chishlar

Seldan keladigan zararlilar

2. Texnik avariylar:

Yong'in, portlash

Tizimdagi qisqa tutashuvlar, elektr toki kuchlanishi

Texnik nosozliklar (invertor, kabel, boshqa qurilmalar)

3. Inson omillari:

O'g'irlik, vandalizm, ataylab zarar yetkazish

Noto'g'ri o'rnatish yoki ekspluatatsiya qilish natijasidagi shikastlanishlar

4. Transport va ko'chirish:

Qurilmani joyidan ko'chirayotganda yoki qayta o'rnatishda ham sug'urta amal qiladi

5. Panel samaradorligining keskin pasayishi:

Agar sug'urta qilinadigan hodisa (masalan, do'l yoki chaqmoq) natijasida panel samaradorligi nominal quvvatdan 20% dan ko'p pasaysa — bunday holat sug'urta doirasiga kiradi

Sug'urta shartlari yorqin:

Trafiklar soni: Bozorning boshqa sug'urtachilariga qaraganda uch baravar ko'proq, ya'ni 12 xil xavfdan himoya

To'liq ta'mirlash xarajatlarini qoplash: Agar zarar yetkazilgan bo'lsa, to'liq pul ishlashi kafolatlangan

Onlayn ariza va tez bajarish: Faqat 5 daqiqada ariza, 7 kunda sug'urta kuchga kiradi, 15 ish kuni ichida to'lov amalga oshiriladi

Sug'urta muddati: 1 yil. Yana yangilash imkoniyati va avtomatik eslatmalar mavjud

Narxi: Tizim qiymatining yillik 2–5% atrofida; uy tizimlari (10 kVt gacha) uchun odatda 3–4%



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Sug'urta to'lovga ta'sir qiluvchi faktlar: Tizim hajmi, joylashuv, sug'urta paketi, deductibles va boshqalar hisobga olinadi

Qamrov o'z ichiga oladi: Butun quyosh tizimi—panellar, invertorlar, batareyalar, kabellar, montaj tizimi—bitta sug'urta paketida qamrab olinadi

Texnik talablar: Professional o'rnatilgan panellar va texnik hujjatlar, sertifikatlar bo'lishi kerak. Yiliga kamida 2 marta tashqi tekshiruv zarur, xizmat ko'rsatuvchilar sertifikatlangan bo'lishi shart

Nima uchun sug'urta muhim?

Investitsiya himoyasi: 2025 yilda O'zbekistonda 74 172 ta quyosh panelini o'rnatish rejalashtirilgan – bu katta moliyaviy sarmoya hisoblanadi

Davlat yordami bilan birgalikda: Sug'urta sizga nafaqat investitsiyani, balki davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar va imtiyozlarni ham himoya qiluvchi muhim vositadir

Sug'urtaning afzalliklari: keng qamrov, to'liq xarajatni qoplash, tez va qulay onlayn xizmat, mos narxlash va yagona tizimli sug'urta imkoniyati.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, sug'urta kompaniyalari yashil iqtisodiyot rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ular risklarni boshqarish, yashil loyihalarni moliyalashtirish va iqlim xavflariga qarshi kurashda asosiy vositachilardan biridir. Xalqaro tajriba va milliy imkoniyatlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston sug'urta sektori yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda katta salohiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. GFIA (2022). Global Insurance Market Report.
2. Munich Re (2021). Natural Catastrophe Losses.
3. OECD (2022). Green Finance and Insurance.
4. Allianz Group (2022). Sustainability Report.
5. Swiss Re (2022). Green Insurance Products.
6. IEA (2022). World Energy Outlook.
7. World Bank (2020). Climate Change and Insurance.
8. Moliya vazirligi (2022). O'zbekiston sug'urta bozori statistikasi.
9. UNEP (2021). Green Economy Report.
10. ILO (2019). Green Jobs and Insurance.
11. EUROASIA Insurance. Solar panel insurance – Property insurance products.
12. EUROASIA Insurance. Subsidies for solar panels in Uzbekistan in 2025.
13. EUROASIA Insurance. Official site – General insurance services in Uzbekistan.

Rasmiy veb-sayt: <https://eai.uz>